

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TERRORIZM ANTROPOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Boybutayev Jahongir Jumanazar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, dotsent (PhD).

e-mail: jaxongir.boybutayev@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0583-3947>

Annotatsiya.

Maqolada globallashuv sharoitida terrorizm antropologiyasining transformatsiyasi inson omili, ijtimoiy identiklik, guruhiy mansublik, radikallashuv, zo'ravonlikning axloqiy jihatdan legitimlashtirilishi va raqamli kommunikatsiyalar bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Terrorchi shaxsni tug'ma yoki universal psixologik tip sifatida emas, balki ijtimoiylashuv, identiklik transformatsiyasi, mafkuraviy ta'sir va guruh munosabatlari kesishuvida shakllanuvchi subyekt sifatida tushunish zarurligi asoslanadi. Globallashuv terrorizmning bevosita sababi emas, balki uning ijtimoiy makoni, kommunikatsiya imkoniyatlari, mansublik shakllari va transmilliy ta'sir mexanizmlarini o'zgartiruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Al-Qoida va IShID misolida transmilliy terrorizm shaxsning mahalliy identikligini keng transmilliy jamoaviy identiklik bilan bog'lash orqali faoliyat yuritishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: terrorizm antropologiyasi, globallashuv, terrorchi shaxs, radikallashuv, identiklik, guruhiy mansublik, raqamli muhit, transmilliy terrorizm, Al-Qoida, IShID.

ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТРОПОЛОГИИ ТЕРРОРИЗМА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Бойбутаев Жахонгир Жуманазар угли

Академия МВД Республики Узбекистан, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется трансформация антропологии терроризма в условиях глобализации во взаимосвязи с человеческим фактором, социальной идентичностью, групповой принадлежностью, радикализацией, моральной легитимацией насилия и цифровыми коммуникациями. Обосновывается необходимость рассматривать личность террориста не как врождённый или универсальный психологический тип, а как субъекта, формирующегося на пересечении процессов социализации, трансформации идентичности, идеологического воздействия и групповых отношений. Глобализация интерпретируется не как непосредственная причина терроризма, а как фактор, изменяющий его социальное пространство, коммуникационные возможности, формы принадлежности и механизмы транснационального воздействия. На примере «Аль-Каиды» и ИГИЛ также показано, что транснациональный терроризм функционирует посредством связывания локальной идентичности личности с более широкой транснациональной коллективной идентичностью.

Ключевые слова: антропология терроризма, глобализация, личность террориста, радикализация, идентичность, групповая принадлежность, цифровая среда, транснациональный терроризм, «Аль-Каида», ИГИЛ.

THE TRANSFORMATION OF THE ANTHROPOLOGY OF TERRORISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Boybutayev Jahongir Jumanazar o'g'li

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The article analyzes the transformation of the anthropology of terrorism in the context of globalization in relation to the human factor, social identity, group belonging, radicalization, the moral legitimization of violence, and digital communications. It argues

that a terrorist should not be understood as representing an innate or universal psychological type, but rather as a subject formed at the intersection of socialization, identity transformation, ideological influence, and group relations. Globalization is interpreted not as a direct cause of terrorism but as a factor that transforms its social environment, communication opportunities, forms of belonging, and mechanisms of transnational influence. Using Al-Qaeda and ISIS as examples, the article also demonstrates how transnational terrorism operates by linking an individual's local identity to a broader transnational collective identity.

Keywords: anthropology of terrorism, globalization, terrorist personality, radicalization, identity, group belonging, digital environment, transnational terrorism, Al-Qaeda, ISIS.

Kirish. Zamonaviy terrorizmni o'rganishda uni faqat siyosiy maqsadlarga erishish vositasi, jinoiy faoliyat yoki davlat xavfsizligiga tashqi tahdid sifatida talqin qilish yetarli emas. Chunki har qanday terrorchilik harakatining markazida muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan, o'z faoliyatiga ma'no beruvchi, muayyan qadriyat va e'tiqodlarni qabul qiluvchi inson turadi. Shu sababli terrorizm antropologiyasining asosiy vazifasi terrorchilik aktining tashqi shakllarini emas, balki inson qanday qilib radikal g'oyalarni qabul qilishi, o'z identikligini qayta shakllantirishi va zo'ravonlikni axloqiy jihatdan maqbul vosita sifatida qabul qilish darajasiga yetib borishini tushuntirishdan iborat.

Bu nuqtai nazar terrorizmni o'rganishda "terrorist kim?" degan statik savoldan "inson qanday qilib terrorchilik faoliyatiga jalb etiladi?" degan dinamik savolga o'tishni taqozo etadi. J. Xorgan terrorizmni tushunishda "nima uchun?" savoli bilan bir qatorda "qanday qilib?" savoli ham muhim metodologik ahamiyatga egaligini ko'rsatadi [1]. Bunday yondashuv terrorchini tayyor holdagi psixologik tip sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy va psixologik transformatsiyalar natijasi sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda terroristik va ekstremistik tashkilotlar, ularning mafkuraviy narrativlari hamda radikallasuv mexanizmlariga oid misollar faqat ilmiy-tahliliy va profilaktik maqsadda ko'rib chiqiladi. Muallif terrorizm, ekstremizm va zo'ravonlikning har qanday shaklini mutlaqo rad etadi. Terroristik tuzilmalarning faoliyati yoki ular tomonidan tarqatilgan g'oyalarning tahlil qilinishi ularni oqlash, qo'llab-quvvatlash yoxud targ'ib qilish maqsadini ko'zlamaydi, balki ushbu destruktiv hodisalarning kelib chiqish mexanizmlarini tushuntirish va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Terrorist shaxsga xos yagona psixologik xususiyatlar yig'indisini aniqlashga qaratilgan urinishlar zamonaviy tadqiqotlarda jiddiy tanqid qilinmoqda. J.M. Post barcha terroristlarga tatbiq etish mumkin bo'lgan universal psixologik model mavjud emasligini ta'kidlaydi [2].

M. Krenshou ham terroristlarning umumiy xususiyati ko'p hollarda ularning "oddiy" insonlar ekanligi ekanini qayd etadi. Demak, terrorizmni ruhiy patologiyaning natijasi sifatida tushuntirish muammoni soddalashtirib yuboradi.

Bu holat terrorizm antropologiyasi uchun prinsipial ahamiyatga ega. Agar terrorist shaxsni oldindan mavjud muayyan tip deb qabul qilish mumkin bo'lmasa, asosiy e'tibor uning qanday ijtimoiylashgani, qaysi guruhlariga mansublik hissini shakllantirgani, qanday mafkuraviy va axborot ta'siriga tushgani hamda uning qadriyatlar tizimi qanday o'zgarganiga qaratilishi kerak.

M. Seyjman terrorizmga jalb etilishni tushuntirishda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida shaxslarning radikal muhitga kirishi ko'p hollarda oldindan mavjud do'stlik, qarindoshlik yoki ishonch munosabatlari orqali kechishi qayd etilgan [3]. Bu esa mafkuraning o'zi shaxsni radikallashtirishi uchun har doim yetarli emasligini ko'rsatadi. G'oya ishonchli ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirganida uning ta'sir kuchi ortishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy identiklik terrorizm antropologiyasining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. X. Tajfel va J. Ternerning ijtimoiy identiklik konsepsiyasiga ko'ra, inson o'zini muayyan guruhga mansub deb qabul qilganida uning maqsadlari, qadriyatlari va manfaatlarini shaxsiy qadriyatlar sifatida o'zlashtira boshlaydi [4]. Radikallasuv sharoitida bu jarayon "men" kategoriyasidan "biz" kategoriyasiga o'tishni kuchaytiradi. Natijada, guruhga nisbatan sadoqat ortib, tashqi guruh "begona", "dushman" yoki tahdid sifatida baholanishi mumkin.

Radikallasuvni ekstremistik g'oyani bir marta qabul qilish bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan cheklangan yondashuvdir. U insonning dunyoqarashi, axloqiy baholari, ijtimoiy mansubligi va xulq-atvorida bosqichma-bosqich kechadigan transformatsiyani qamrab oladi.

T. Gurrning nisbiy deprivatsiya nazariyasi bu jarayonning muhim jihatini tushuntirib beradi. Unga ko'ra, insonning real imkoniyatlari bilan u munosib deb hisoblagan ijtimoiy maqom yoki kutishlari o'rtasidagi tafovut adolatsizlik va norozilik hissini kuchaytirishi mumkin [5]. Biroq, nisbiy deprivatsiya avtomatik ravishda terrorizmga olib kelmaydi. Muammo norozilik muayyan mafkuraviy narrativ bilan bog'langanda va zo'ravonlik "adolatni tiklash"ning maqbul usuli sifatida talqin qilina boshlaganda kuchayadi.

F. Mog'addamning "terrorizm sari zinapoya" modeli radikallasuvni bosqichma-bosqich kechadigan psixologik jarayon sifatida tushuntiradi [6]. Modelda adolatsizlik hissi, muqobil imkoniyatlarning cheklanishi, dushman obrazining shakllanishi, radikal guruh bilan identifikatsiya va zo'ravonlikni qabul qilish bosqichlari o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

K. Makkoli va S. Moskalenko ham radikallasuvni bir sababga bog'lab bo'lmasligini ko'rsatadilar. Ularning yondashuvda shaxsiy tajriba, guruh ta'siri, siyosiy voqealar va ijtimoiy munosabatlar turli mexanizmlar orqali

radikallashuvni kuchaytirishi mumkin [7].

Radikallashuv jarayonida hal qiluvchi antropologik nuqtalardan biri zo'ravonlikni axloqiy jihatdan legitimlashtirishdir. A. Banduraning "axloqiy uzilish" konsepsiyasi inson qanday qilib odatda qabul qilmaydigan zararli harakatni muayyan "oliy maqsad" bilan asoslashi mumkinligini tushuntirishga yordam beradi [8]. Zo'ravonlik adolat, ozodlik, qasos yoki jamoani himoya qilish kabi tushunchalar bilan bog'langanida shaxsning mavjud axloqiy cheklovlari susayishi mumkin.

Shunday qilib, terrorizmga olib boruvchi muhim antropologik transformatsiya insonning zo'ravonlikni jinoyat emas, balki ma'naviy jihatdan asoslangan vosita sifatida qabul qilishida namoyon bo'ladi.

A. Kruglanski va hammualliflar radikallashuvning psixologik asoslarini insonning "ahamiyatga erishish" ehtiyoji bilan bog'laydilar [9]. Inson o'z qadr-qimmatini yo'qotganini, kamsitilganini yoki ijtimoiy ahamiyati pasayganini his qilganida uni qayta tiklash imkoniyatini taklif qiluvchi g'oyalarga nisbatan sezgirroq bo'lishi mumkin.

Bu nazariya terrorizm antropologiyasi uchun muhim, chunki u tashqi ijtimoiy sharoitlarni shaxsning ichki motivatsion dunyosi bilan bog'laydi. Qashshoqlik, migratsiya, siyosiy norozilik yoki ijtimoiy chetlashuvning o'zi terrorizmni keltirib chiqarmaydi. Ular inson tomonidan qanday qabul qilinishi, shaxs bu holatlarga qanday ma'no berishi va uning ahamiyatga bo'lgan ehtiyoji qaysi mafkuraviy kanal orqali yo'naltirilishi muhim.

Shu sababli radikal tashkilotlarning ta'sir kuchi ularning faqat siyosiy yoki diniy g'oyalarni tarqatishida emas, balki shaxsga yangi ijtimoiy rol va ahamiyat taklif etishida ham namoyon bo'ladi. Radikal va terroristik tuzilmalar shaxsni o'z safiga jalb qilish jarayonida uning ijtimoiy e'tirof va ahamiyatga bo'lgan ehtiyojidan manipulyativ tarzda foydalanib, zo'ravonlikni soxta "qahramonlik", "himoyachilik" yoki "oliy vazifa" sifatida talqin qiluvchi destruktiv narrativlarni shakllantirishi mumkin. Bunday narrativlar shaxsning ijtimoiy identikligini buzib, qonunga xilof zo'ravonlikni oqlash xavfini kuchaytiradi.

Globalashuv terrorizmni yaratgan hodisa emas. Siyosiy zo'ravonlik, terror va radikal harakatlar globalashuvning zamonaviy shakllaridan ancha oldin mavjud bo'lgan. Biroq globalashuv terrorizmning amal qilish muhiti, kommunikatsiya imkoniyatlari va ijtimoiy bazasini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali radikal g'oyaning tarqalishi muayyan hudud bilan cheklanmay qoldi. Shaxs geografik jihatdan radikal tashkilotdan minglab kilometr uzoqda bo'lishiga qaramay, uning axborot muhiti va virtual jamoasi bilan doimiy aloqada bo'lishi mumkin.

AQSH Milliy Adliya Instituti homiyligida o'tkazilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan K. Aryaeinajod va T.L. Sherer internet va ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik materiallarni tarqatish, tarafdorlar o'rtasida kommunikatsiya va rekrutimga muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [10]. Shu bilan birga, onlayn muhit radikallashuvning yagona va avtomatik sababi emas. Bu farq muhimdir. Internet insonni "o'z-o'zidan" terrorchiga aylantirmaydi. U mavjud ijtimoiy norozilik, identiklik inqirozi, mansublik ehtiyoji va mafkuraviy ta'sirlarni birlashtiruvchi kommunikatsion makon vazifasini bajaradi.

B. Ganesh va K. Froio raqamli muhitda shakllanuvchi transmilliy jamoat makonlari muayyan radikal dunyoqarashni jamoaviy tarzda tasdiqlash va legitimlashtirishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadilar [11]. Virtual jamoa shaxs uchun axborot manbai bo'lish bilan cheklanmay, uning mansublik va ijtimoiy identiklik ehtiyojini qondiruvchi muhitga ham aylanishi mumkin.

Globalashuvning terrorizm antropologiyasiga ko'rsatgan ta'siri Al-Qoida va ISHID kabi transmilliy terroristik tuzilmalar faoliyatida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Transmilliy terrorizmning asosiy xususiyati faqat tashkilotning bir necha mamlakatda faoliyat yuritishi emas. U insonning siyosiy va ijtimoiy makon haqidagi tasavvurini ham milliy chegaralardan tashqariga chiqarishga harakat qiladi.

Terroristik tashkilot sifatida faoliyat yuritgan Al-Qoida modelida markazlashmagan tarmoq tuzilmalari va destruktiv transmilliy mafkuraviy narrativlardan foydalanilgan. ISHID esa terroristik faoliyatni amalga oshirish bilan bir qatorda, g'ayriqonuniy hududiy-siyosiy tuzilma haqidagi soxta tasavvurlarni targ'ib qilish orqali ayrim shaxslarning mavjud fuqarolik va ijtimoiy identikligiga qarshi alternativ radikal mansublikni shakllantirishga uringan. M. Seyjmanning terroristik tarmoqlar tahlili bunday tuzilmalarda shaxsiy va ijtimoiy aloqalarning muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi [12].

ISHID esa, bundan farqli ravishda, nafaqat transmilliy mafkuraviy jamoa, balki muayyan hududiy-siyosiy loyiha va "davlat" tasavvurini ham taklif qildi. Bu modelning antropologik ta'siri shaxsga mavjud fuqarolik, milliy va ijtimoiy identiklik o'rniga alternativ siyosiy-diniy mansublikni taklif etishi bilan izohlanadi.

Har ikki modelda ham umumiy mexanizmni kuzatish mumkin: shaxsning mahalliy hayotiy tajribasi transmilliy narrativga ulanadi, "biz" kategoriyasi milliy chegaradan tashqariga chiqadi va zo'ravonlik global jamoani himoya qilish vositasi sifatida asoslanadi.

Shu sababli, transmilliy terrorizmga qarshi kurash faqat tashkilotlarning moliyaviy, tashkiliy va logistik infratuzilmasini buzish bilan cheklanmasligi lozim. Ularning insonga taklif etayotgan mansublik, ma'no va ijtimoiy e'tirof modellariga muqobil konstruktiv ijtimoiy imkoniyatlar yaratish ham muhim.

Xulosa. Globalashuv sharoitida terrorizm antropologiyasining asosiy transformatsiyasi terrorchilik vositalarining texnik takomillashuvida emas, balki insonning ijtimoiylashuv muhiti, identikligi, mansublik munosabatlari va axborot makonining o'zgarishida namoyon bo'ladi. Terrorist shaxs universal psixologik tip emas. U muayyan ijtimoiy aloqalar, shaxsiy tajriba, guruhiiy identifikatsiya, ma'no va e'tirofga ehtiyoj hamda mafkuraviy ta'sir kesishuvida shakllanishi mumkin. Radikallashuv esa bir martalik qarordan ko'ra shaxsning qadriyatlari, axloqiy baholari va ijtimoiy mansubligida kechadigan bosqichma-bosqich transformatsiyadir.

Shu nuqtai nazardan, terrorizm profilaktikasining vazifasi faqat radikal axborotni cheklash yoki sodir etilgan

tahdidga javob berish emas. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, konstruktiv guruhiiy mansublikni ta'minlash, yoshlarga ijtimoiy e'tirof va hayotiy ma'noning zo'ravonliksiz shakllarini taklif qilish ham zamonaviy antropologik profilaktikaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Horgan J. The Psychology of Terrorism. – London: Routledge, 2005. – 185 p.
2. Post J. M. The Mind of the Terrorist: The Psychology of Terrorism from the IRA to al-Qaeda. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 312 p.
3. Sageman M. Understanding Terror Networks. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2004. – 220 p.
4. Tajfel H., Turner J. C. An Integrative Theory of Intergroup Conflict // The Social Psychology of Intergroup Relations. – Monterey: Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
5. Gurr T. R. Why Men Rebel. – Princeton: Princeton University Press, 1970. – 428 p.
6. Moghaddam F. M. The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration // American Psychologist. – 2005. – Vol. 60, No. 2. – P. 161–169.
7. McCauley C., Moskaleiko S. Friction: How Radicalization Happens to Them and Us. – New York: Oxford University Press, 2011. – 240 p.
8. Bandura A. Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves. – New York: Worth Publishers, 2016. – 548 p.
9. Kruglanski A. W., Gelfand M. J., Bélanger J. J., Sheveland A., Hetiarachchi M., Gunaratna R. The Psychology of Radicalization and Deradicalization: How Significance Quest Impacts Violent Extremism // Advances in Political Psychology. – 2014. – Vol. 35, Suppl. 1. – P. 69–93.
10. Aryaeinejad K., Scherer T. L. The Role of the Internet and Social Media on Radicalization: What Research Sponsored by the National Institute of Justice Tells Us. – Washington: National Institute of Justice, 2024. – 31 p.
11. Ganesh B., Froio C. Transnational Far-Right Digital Publics and Radicalisation // Radicalisation: A Global and Comparative Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2023. – P. 247–248.
12. Sageman M. Understanding Terror Networks. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2004. – 220 p.